

BADIIY MATNNIG ASSOTSIATIV TAHLILI

(E.Vohidov va A.Oripov she'rlari misolida)

Nurboyeva Maftuna

*ToshDO 'TAU tayanch doktoranti,
Alfraganus universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnnig assotsiativ tahlili haqida fikr yuritilib, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodidagi bir xil nom ostidagi she'rlari assotsiativ nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, stimul so'z, assotsiativ maydon, yadro, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, til birliklari.*

Kirish. Badiiy matndagi assotsiativ birliklar nafaqat so'z san'atkorining leksik zahirasi, ayni tilning ma'lum bir davrdagi leksik tarkibi haqida ham ma'lumot bera oladi. Badiiy matnlar tahlili asosida muayyan davr tili, tilning leksik tarkibi, grammatik qurilishi haqida ham xulosa qilish mumkin bo'ladi. Matnda assotsiativ tarzda bir-biri bilan bog'langan til birliklari assotsiativ maydonni hosil qiladi. Bunday birliklar ijodkor ifoda etmoqchi bo'lgan asosiy g'oya atrofida birlashadi. Badiiy matndagi assotsiativ maydon birliklarining ko'p qismini adibning voqelikka subyektiv munosabatini aks ettiruvchi birliklar tashkil qiladi.

Manbalarda badiiy matnga assotsiativ maydon sifatida qaralib, uning sarlavhasi maydon yadrosi deb beriladi. (1) Agar matn, jumladan, she'r sarlavhasiz bo'lsa, assotsiativ maydon yadrosi she'rning ifoda obyekti yoki lirik qahramon anglatgan birlik bo'lishi mumkin, chunki she'rdagi barcha leksik birliklar ular bilan ham semantik jihatdan, ham assotsiativ bog'lanadi, bu esa assotsiativ maydon yadrosi mavjudligining asosiy shartidir. Haqiqatdan ham poetik matnning ifoda obyekti assotsiativ maydon yadrosi vazifasini o'tay oladi. Negaki matn mazmunini hosil qiluvchi, uning propositiv strukturasini shakllantiruvchi tayanch birliklar nutq egasining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq tarzda matn uchun

tanlangan obyekt tasviri, tavsifi uchun yoʻnaltiriladi. Shu bois matnni hosil qiluvchi tayanch birliklar uning yadrosi atrofida birlashadi. (2)

Asosiy qism. Quyida Erkin Vohidovning "Bir nihol" sheʼri assotsiativ maydonini tahlil qilish asosida fikrlarimizni oydinlashtiramiz:

Bir nihol

*Yurtdoshim, bogʻingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini yaxshilik ata.*

*Niholing yoniga bir gul ekib qoʻy,
U gulning ismini goʻzallik deb qoʻy.*

*Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga mehr deb qoʻy ot.*


*Sendan farzandingga bogʻ qolsin, ey doʻst,
Bogʻing Vatan degan nom olsin, ey doʻst.[V,4,556].*

Sheʼr mohiyatiga eʼtibor beradigan boʻlsak, shoir niholni koʻz oldiga keltirar ekan, uning tuzilishi, shakl-u shamoyili haqida fikr yuritmay, nihol ekish va uni parvarish qilishga "birni kessang, oʻnni ek" maqoli qabilida daʼvat etib, sheʼr soʻngini "yaxshidan bogʻ qoladi" maqoli mazmuni bilan tugatmoqda.

Ushbu sheʼrda "bir nihol" leksik birligi bilan assotsiativ bogʻlangan quyidagi birliklarni ajratish mumkin: *bogʻ, nihol qada, gul ekib qoʻy, yaxshilik ata, goʻzallik deb qoʻy, suv, suv ber, mehr, Vatan*. Koʻrinib turibdiki, sheʼrdagi assotsiatsiyalar leksik(*bogʻ, gul-u nihol, suv*) va sintaktik birliklar(*nihol qada, gul ekib qoʻy, yaxshilik ata, goʻzallik deb qoʻy, hayot baxsh etib, suv ber, mehr deb qoʻy, bogʻ qolsin, Vatan degan nom olsin*)dan tashkil topib, assotsiativ maydonni hosil qilgan.(3) Mazkur sheʼrdagi assotsiativ birliklar ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillar bilan bogʻliq holda hosil boʻlgan. Jumladan, "nihol" leksemasining *bogʻ* leksemasi bilan aloqasi (lingvistik jihatdan) butun qism munosabatiga asoslangan boʻlsa (ekstralingvistik jihatdan predmetlarning makondagi aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiyani

yuzaga chiqaradi), *hayot baxsh etib, suv ber, bog'ingga qada, ot qo'y, ism qo'y, nom olsun* assotsiativ bog'lanishi esa predmet va u bilan bog'liq ish-faoliyat aloqadorligi asosida hosil bo'lgan. *Ot, ism, nom* assotsiatlari o'z navbatida sinonimik qatorni ham hosil qilgan. *Ot* – *ata* birliklari esa leksemalarning yasalishiga asoslangan assotsiatsiyani yuzaga chiqarmoqda. "*Nihol*" leksemasi bilan assotsiativ bog'langan "*sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st*" jumlası shoirning milliy-madaniy qadriyatlar borasidagi qarashi va shu qarashi tufayli tug'ilgan da'vati tariqasida yuzaga kelgan.

She'rda stimul so'z bilan semantik jihatdan bevosita bog'lanmagan assotsiatsiyalar ham kuzatiladi: *go'zallik deb qo'y, mehr deb ot qo'y, Vatan degan nom olsun*" assotsiatlari "*nihol*" leksemasi bilan emas, *gul, suv, bog'* leksemalari bilan semantik munosabatga kirishadi. *Bog', suv, suv ber, yaxshilik ata, gul-u nihol* kabi assotsiatlar yadro qism(*nihol*) bilan bevosita bog'lanadi. She'rdagi assotsiativ maydon birliklarini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:



Chizmadan ko'rinadiki, ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalar she'riy matnning yaratilishida tayanch birliklar vazifasini o'taydi.

Adabiyot – tilning badiiy voqelanishi. Tilning butun sehr-u jozibasi, latofati, hatto nuqsi ham shu tilda yaratilgan badiiy asarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun biz quyida ikki ijod ahlida assotsiativ birliklar munosabatini kuzatdik.

Dastlab, biz E. Vohidovning ”Buloq” she’rini ham assotsiativ tahlilga tortdik:

*Buloq ona Yer siynasidan
She’r singari qaynab oqadi.
Suvning kumush oyinasidan
Mehrimga bo‘lib quyosh boqadi.*

*To‘yib ichdim, suv bilan go‘yo
Dilga singdi yurt muhabbati.
Tashnaligim qondi-yu, ammo
Yana ortdi qalb harorati.*


She’r matnidagi assotsiatsiyalar: *er siynasi, she’r singari qaynab oqmoq, suv, kumush oyna, mehimga bo‘lib quyosh boqadi, to‘yib oqmoq, dilga singmoq, yurt muhabbati, tashnalik, qonmoq, qalb harorati* kabi birliklar *buloq* leksemasi bilan assotsiativ bog‘langan. Bular stimulus so‘zning assotsiativ maydoniga birlashadi.

She’rdagi assotsiativ birliklar ham lingvistik, ham ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘lgan. Jumladan, stimulus so‘z *suv* leksemasi bilan butun-qism munosabatini hosil qiladi. *Buloq-suv* birikuvi o‘zaro hayotiy zaruriyat belgisiga ko‘ra ham assotsiatsiv munosabatda turibdi, chunki suv bo‘lmasa, buloq ham bo‘lmaydi: buloqning paydo bo‘lishi uchun suv zarur. *Kumush oyna* birikmasi predmet va uning belgisi munosabatini yuzaga chiqargan. *Ona er siynasi* birikuvi makondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiyaga misol bo‘la oladi. *To‘yib ichmoq* insonning voqelikka munosabati, istak-xohishiga asoslangan assotsiatsiya; *qaynab oqmoq* faoliyat va obyektning aloqadorligiga ko‘ra; *tashnaligim qondi* birikuvi esa sabab-natija munosabatiga asoslangan assotsiatsiyani yuzaga chiqargan. Bundan tashqari, *she’r singari qaynab oqadi* (buloqning she’rga o‘xshab qaynab oqishi), *dilga singdi yurt muhabbati* (buloq suvining organizmga kirishi

xuddi yurt muhabbatining dilga singishiga o‘xshaydi) birliklari yadro bilan o‘xshashlik munosabatiga ko‘ra assotsiativ munosabatga kirishgan.(4)

Yuqoridagi assotsiativ birliklar stimul so‘z bilan bevosita assotsiatsiya hosil qilgan bo‘lsa, *mehrim bo‘lib quyosh boqadi* birligi bilvosita assotsiativ munosabatga kirishgan.

She‘rdagi assotsiativ maydon birliklari munosabatini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin:



Shoir ijodida va kishilik jamiyati ongida biz *buloq* so‘zining qanday assotsiatsiyalar hosil qilishini ko‘rib o‘tdik. Yuqoridagi tahlillar asosida har ikkala assotsiativ maydonning umumiy a‘zolari sifatida quyidagi birliklarni keltirish mumkin: *suv*, *chanqoqni qondiruvchi* (*tashnaligim qondi*). Demak, bu tushunchalar *buloq* stimul so‘zi bilan assotsiativ munosabatga kirishadigan umumiy tushunchalar.(5)


A.Oripovning aynan shu nomli she'rida esa quyidagi manzaraga guvoh bo‘ldik:

*Qutlug‘ bir saharda ko‘z ochdi buloq,
Yo‘l soldi daryolar sari adashib.
Unga rahm etmoqchi odamlar shu choq,
Tog‘- u toshlar aro yaqin yo‘l ochib.
Odamlar, tegmangiz, mayli, toshsin u,
Mayliga, tog‘ni ham ko‘rsin yo‘lida.
Qo‘ying, o‘z yo‘lini o‘zi topsin u,*

Zavqlanolsin u ham kurash so'ngida.

Ko'rib turganimizdek, she'r ramziy, ko'chimlarga boy. *Buloq* timsoli orqali shoir bir insonning tug'ilganidan boshlab to umrining so'ngigacha bo'lgan hayot yo'lini tasvirlagan. Inson hayoti davomida turli to'siqlar, qiyinchiliklarga uchraydi, bu to'siqlarda kimlardir unga ko'maklashadi, intilganiga erishganida esa zavqlanadi. (6)

She'r matnidagi assotsiatsiyalar: *saharda ko'z ochdi, daryolar, yo'l soldi, odamlar rahm etmoqchi, tog'-u toshlar, yo'l ochdi, toshsin, tog', o'z yo'lini o'zi topsin, kurash so'ngida zavqlanolsin* kabi birliklar stimul so'z bilan assotsiatsiyani hosil qilgan. She'rdagi assotsiativ maydon birliklarini chizmada quyidagicha ifodalash mumkin:



Ushbu she'rdagi *saharda ko'z ochdi* birligi predmetlarning zamondagi aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiyaga misol bo'la oladi. Makondagi aloqadorlik asosidagi assotsiatsiyani *buloq – tog'* birikuvi hosil qilgan. *Odamlar rahm etmoqchi* birligi insonning voqelikka munosabatini yuzaga chiqargan bo'lsa, *buloq – yo'l soldi, buloq – toshsin* faoliyat va obyekt aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiya; *kurash so'ngida zavqlanolsin* birligi predmetlar o'rtasidagi sabab-natija munosabatiga asoslangan assotsiatsiyani aks ettirgan.

Erkin Vohidov va Abdulla Oripovning bir xil nomdagi ("Buloq") she'rlarini mazkur tahlilimizga tortar ekanmiz, E. Vohidov ijodida *buloq* stimulining javob reaksiyalari o'z ma'nosida qo'llangani, Abdulla Oripov ijodida esa assotsiativ birliklarning to'laligicha ramziylik kasb etganining guvohi bo'lamiz (buning bosh sababi – she'r matnining o'zi ramziy). Har ikkala she'rdagi assotsiatsiyalarning hosil bo'lish omillari o'xshash bo'lsa ham, mazmunan turlicha yondashilgan. Ikkala she'rda ham shoirlarning o'ziga xos uslublari, yo'nalishlari akslanib turibdi.

Z.Freydning fikricha, so'zlarning assotsiatsiyalari nafaqat vaziyatga aloqador, balki effekt, ichki his-hayajon, tuyg'u jarayoni ham bo'lishi mumkin.(6) Shuning uchun assotsiativ maydon tuzilishida turli individual assotsiatsiyalarni ham uchratamiz. O'tkazilgan tajribada *"Allohning mo'jizasi", yaratiqlar oldida bosh egish* kabi birikuvlar nutq egasining e'tiqodini alohida namoyon qilgan bo'lsa, E.Vohidov ijodida *she'r singari qaynab oqmoq, dilga singdi yurt muhabbati, A.Oripov ijodida saharda ko'z ochdi, o'z yo'lini o'zi topsin, kurash so'ngida zavqlanolsin* birliklari bilan hosil qilgan assotsiatsiyalar bevosita kasbiy individuallikni yuzaga chiqargan. Ya'ni har bir shaxsda stimuly so'zga nisbatan umumiy assotsiatsiyalardan tashqari shaxsiy, individual munosabat ham mavjuddir.

Xulosa. Har qanday matnning shakllanishida muallifning tasvir obyekti bilan bog'liq verbal assotsiatsiyalari muhim o'rin tutadi. Verbal assotsiatsiyalar matnni hosil qiluvchi, uni semantik-sintaktik jihatdan shakllantiruvchi asosiy tayanch birliklar vazifasini o'taydi. Bu jihatdan qaraganda, hech bir matnning lingvistik xususiyatiga assotsiativ tahlillarsiz haqqoniy baho berib bo'lmasligi ma'lum bo'ladi. Ayniqsa, badiiy matnning tahliliga assotsiativ yondashuv matnning semantik-sintaktik tarkibini aniqlashda yordam beradi.

Badiiy matnda qo'llangan assotsiativ munosabatdagi birliklar tahlili orqali ijodkorning voqelikni idrok etishi va u haqidagi tasavvurlari, leksik zahirasi, zahira ko'lami hamda tarkibi, ijodkorning so'z tanlash mahorati haqida qimmatli bilimlarga ega bo'lishi mumkin. Bu holat insonning psixologik tasavvuri asosida xotirasida bir-birini yodga

tushiruvchi assotsiatsiyalarni nafaqat psixologlar, balki tilshunoslar ham chuqur o'rganishi lozimligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2007. – 379 б.
- 2.Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. -9-10 б.
- 3.Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддиёт. – Т.: Академнашр. 2014. – 284 б.
- 4.Mengliyev B. Til yaxlit sistema sifatida: Monografiya. –Toshkent: Nihol, 2010.
- 5.Искандарова Ш., Хошимова Н. Нутк жараёнида ассоциацияларнинг вокеланиши// АнДУ. Илмий хабарлар. – Андижон 2010. - №2. – Б. 85-88.
6. Лутфуллаева Д., Тожибоев Б. Ўзбек тилида миллий-маданий ассоциатив бирликлар.// Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 2018. №3. 43-49-б.
7. М Рахимжанов, лисоний қиймат ва уни тиклашга доир. - Журнал Горизонты Филологии, 2021. В.
8. Saparniyazova, M. (2021). Ozanlık Sanatının Özbek Halkı ve Kültüründeki Rolü. *Âşık sanati*, 57.
9. Küçük, S., Saparniyazova, M., Demirci, Ü. Ö., Jureyava, N., & Sarıtunç, B. (2024). Özbek Türkçesi Terkibindeki Oğuz Lehçesi ve Onun Ayırt Edici Fonetik Hususiyetleri. *BABUR Research*, 3(1), 287-294.
10. Jurayeva, N. (2025). Hosiyat bobomurodova she'riyatining poetik xususiyatlari. *Indexing*, 1(1), 91-95.
11. Ismailov, G. M. (2016). Phraseological Picture Of The World In The Turkic Languages. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(43), 5-7.
11. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.